



MUMTOZ ADABIYOTLARNI TADQIQ QILISHDA ZAMONAVIY LUG'ATLARNING O'RNI

Abduraximova Muxlisa

Annotatsiya

Ushbu tezisimda mumtoz adabiy merosni tadqiq etish jarayonida zamonaviy lug'atlarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritiladi. Mumtoz asarlarda uchraydigan tarixiy, arxaik, ko'p ma'noli hamda mazmuni zamonaviy kitobxon uchun murakkab bo'lgan so'zlarni anglashda izohli lug'atlarning imkoniyatlari tahlil qilinadi. Xususan, Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati misolida mumtoz matnlardagi leksik birliklarning ma'nosi va qo'llanish xususiyatlarini aniqlash masalalariga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, elektron lug'atlar, morfologik tahlil modellari va dasturiy vositalardan foydalanish mumtoz matnlarni chuqur o'rganish, so'zlarni o'zak va affikslarga ajratish hamda ularning grammatik xususiyatlarini belgilash imkonini berishi asoslanadi. Tadqiqotimda zamonaviy lug'atlarning milliy til korpusini shakllantirish va mumtoz manbalarni raqamli muhitda tadqiq qilishdagi o'rni ham ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: mumtoz adabiyot, mumtoz asarlar, zamonaviy lug'at, izohli lug'at, elektron lug'at, Alisher Navoiy, mumtoz leksika, morfologik tahlil, so'z ma'nosi, o'zak va affiks, raqamli filologiya, milliy til korpusi

Abstract

This thesis examines the scientific and practical significance of modern dictionaries in the study of the classical literary heritage. It analyzes the role of explanatory dictionaries in understanding historical, archaic, polysemantic, and semantically complex words found in classical literary works that may be difficult for modern readers to comprehend. Particular attention is paid to the Explanatory Dictionary of the Language of Alisher Navoi's Works as an important source for identifying the meanings and usage patterns of lexical units in classical texts. The study also substantiates that the use of electronic dictionaries, morphological analysis models, and software tools makes it possible to conduct an in-depth analysis of classical texts, separate words into roots and affixes, and determine their grammatical features. Furthermore, the research highlights the role of modern dictionaries in developing a national language corpus and studying classical sources within a digital environment.

Keywords: classical literature, classical works, modern dictionary, explanatory dictionary, electronic dictionary, Alisher Navoi, classical lexicon, morphological analysis, word meaning, root and affix, digital philology, national language corpus.

Аннотация

В данной тезисе рассматривается научно-практическое значение современных словарей в процессе исследования классического литературного наследия. Анализируются возможности толковых словарей в понимании исторических,



архаичных, многозначных, а также семантически сложных слов, встречающихся в классических произведениях и представляющих определённые трудности для современного читателя. Особое внимание уделяется «Толковому словарю языка произведений Алишера Навои» как важному источнику для определения значения и особенностей употребления лексических единиц в классических текстах. Кроме того, обосновывается значение электронных словарей, моделей морфологического анализа и программных средств в углублённом изучении классических текстов, выделении корней и аффиксов, а также определении грамматических особенностей слов. В исследовании также раскрывается роль современных словарей в формировании национального языкового корпуса и изучении классических источников в цифровой среде.

Ключевые слова: классическая литература, классические произведения, современный словарь, толковый словарь, электронный словарь, Алишер Навои, классическая лексика, морфологический анализ, значение слова, корень и аффикс, цифровая филология, национальный языковой корпус.

Muallifning fikricha, tilshunoslik va adabiyotshunoslik taraqqiyoti mumtoz adabiy merosni yangi ilmiy yondashuvlar asosida o'rganishni taqozo etmoqda. O'zbek mumtoz adiblari tomonidan yaratilgan bebaho asarlar nafaqat milliy adabiyotimiz, balki o'zbek tilining tarixiy taraqqiyoti, lug'aviy boyligi va ma'naviy imkoniyatlarini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. Biroq mumtoz matnlarda qo'llangan ayrim tarixiy, arxaiik, arabcha va forsha so'zlarning bugungi kitobxon uchun tushunilishi har doim ham oson emas. Shu sababli bunday asarlarni chuqur tadqiq etishda lug'atlarga murojaat qilish muhim ilmiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Mumtoz asarlardagi har bir so'z muayyan mazmun va badiiy vazifani ifodalashi mumkin. Ijodkor tomonidan tanlangan leksik birlikning asl ma'nosini to'g'ri anglash asarning umumiy mazmunini aniq talqin qilishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, mumtoz asarlar asosida yaratilgan izohli lug'atlar so'zlarning ma'nosi, matndagi qo'llanishi va ayrim leksik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Xususan, Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati mumtoz adib ijodida uchraydigan ko'plab so'zlarni izohlash va ularning mazmunini anglashda muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy tilshunoslikda lug'at tuzish jarayoni elektron texnologiyalar bilan ham uzviy bog'lanmoqda. Elektron lug'atlar va matnlarni avtomatik tahlil qilish dasturlari mumtoz manbalarni o'rganishning yangi imkoniyatlarini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, morfologik tahlil orqali so'zning o'zagi, affikslari, so'z turkumi va grammatik shakllarini aniqlash mumkin. Bunday yondashuv mumtoz matnlarni tizimli o'rganish bilan bir qatorda kelgusida o'zbek tilining milliy korpusini shakllantirish uchun ham muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar ham milliy tilning tarixiy va zamonaviy imkoniyatlarini chuqur tadqiq etish zaruratini kuchaytirmoqda. Shu jihatdan mumtoz adabiy manbalarni zamonaviy lug'atlar, elektron resurslar va morfologik tahlil vositalari asosida o'rganish nafaqat adabiy merosni anglash,





balki o‘zbek tilining ilmiy va raqamli imkoniyatlarini kengaytirish nuqtayi nazaridan ham dolzarbdir.

Mazkur tezisning asosiy maqsadi mumtoz adabiy asarlarni tadqiq qilishda zamonaviy va elektron lug‘atlarning ilmiy-amaliy imkoniyatlarini yoritish, ulardan mumtoz matnlarda uchraydigan so‘zlarning ma’nosi va qo‘llanish xususiyatlarini aniqlashda foydalanish yo‘llarini ko‘rsatishdan iborat. Shuningdek, Alisher Navoiy asarlari tilidagi leksik birliklarni izohlash, so‘zlarning o‘zagi va affikslarini aniqlash, morfologik xususiyatlarini tahlil qilish hamda bunday jarayonlarni elektron dasturlar yordamida amalga oshirish imkoniyatlarini asoslash tezisning muhim maqsadlaridan biridir. Shu orqali zamonaviy lug‘atlarning mumtoz merosni ilmiy tadqiq etish, raqamlashtirish va milliy o‘zbek tili korpusini shakllantirishdagi ahamiyatini ochib berish ko‘zda tutiladi.

Alisher Navoiy ijodi bu borada muhim manbalardan biri hisoblanadi. Uning asarlarida qo‘llangan ko‘plab leksik birliklarning ma’nosi maxsus lug‘atlarda izohlangan. Masalan, “darmiyon” so‘zining “o‘rtada, orada” ma’nolarida qo‘llanishi mumtoz matnni tushinishda lug‘aviy izohning ahamiyatini ko‘rsatadi. Demak, mumtoz lug‘atlar adabiy asarlarda mavjud bo‘lgan so‘z boyligini tizimlashtirish va ularning mazmunini ochib berishda muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi. Shuningdek, zamonaviy elektron lug‘atlar va morfologik tahlil modellarining rivojlanishi mumtoz adabiyot tadqiqotlariga yangi imkoniyatlar olib kirmoqda. So‘zlarni o‘zak va affikslarga ajratish, so‘z turkumini aniqlash hamda grammatik shakllarini belgilash orqali mumtoz matnlarni avtomatlashtirilgan tarzda o‘rganish imkoniyati kengaymoqda. Bunday texnologik yondashuv kelgusida o‘zbek mumtoz adabiyoti bo‘yicha elektron resurslar va milliy til korpusini shakllantirish uchun ham muhim zamin yaratadi. Shu sababli zamonaviy lug‘atlarni mumtoz adabiy merosni o‘rganishning an’anaviy va raqamli usullarini bog‘lovchi muhim ilmiy vosita sifatida baholash mumkin.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Raximbayev M.K. Mumtoz asarlar lug‘atlari va morfologik tahlil qilish modellari // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. - 2022. - Vol. 2.- Issue 4/2. - B. 512-516.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 4 jildlik. - Toshkent, 1983-1985.
3. O‘zbek tili morfem lug‘ati. -Toshkent: O‘qituvchi, 1997.
4. Hojiyev A., Nurmonov A., Zaynobidinov S., Kokren K., Saidxonov M., Sobirov A., Qurbonov D. Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. - Toshkent: Sharq, 2001.
5. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - Toshkent, 1992.



6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.

